



Received: October 7, 2024
Accepted: December 18, 2024
Available online: December 25, 2024

Zuxra Xusanova

Tayanch doktorant
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MATN TAHLILINING KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA MADANIYATLARARO PRAGMATIKA

ANNOTATSIYA

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslik fani psixologiya, sotsiologiya va mantiq fanlari bilan uzviy bog'liqlikni hosil qildi. Mazkur hamkorlikdagi soha bilan kognitologiya fani shug'ullanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi kognitiv tilshunoslikning asosiy prinsiplari va nazariy konsepsiyalarini tahlil qilishhamda fanda qo'llaniladigan konseptual birliklarni aniqlash, metodologik yondashuvlarni sinchiklab o'rganish va ularning ilmiy tadqiqotlardagi ahamiyatini ochib berishdir. Kognitiv tilshunoslikda qo'llaniladigan metodologik uslublar va ularning amaliy tadqiqotlar jarayonida qo'llanilishining tahlili kognitiv tilshunoslikning zamonaviy lingvistik izlanishlarda tutgan o'rnini to'g'ri anglashga yordam beradi.

Maqolaning vazifalari sifatida kognitiv tilshunoslikning mohiyatini ochib berishda ko'makchi bo'lgan konseptual birliklar, xususan, ssenariy, skript, freym va geshtalt yo'nalishlarining ahamiyatini misollar keltirish orqali tushuntirish belgilangan. Xususan, konseptual birliklar kognitiv tilshunoslikning asosini tashkil qiluvchi tushunchalardir. Chunki, kognitiv faoliyat ongimizda kechadigan jarayonlarni tartibga soluvchi tushuncha bo'lib, ushbu jarayonlar aynan konseptual birliklar yordamida amalga oshiriladi. So'ngraesa mental tuzilma-konsept hosil bo'ladi va u orqali muloqotga kirishish imkoniga ega bo'lamiz.

Tadqiqotda tasniflash, tavsiflash, kognitiv tahlil hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalaniladi. Xususan, matnning semantik

Zukhra Khusanova

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: zuxra.xusanova94@gmail.com
ORCID iD: 0009-0009-9888-8331

COGNITIVE FEATURES OF TEXT ANALYSIS AND CROSS-CULTURAL PRAGMATICS

ABSTRACT

Since the second half of the last century, the field of linguistics has established an integral connection with the disciplines of psychology, sociology, and logic. Cognitive science encompasses this interdisciplinary domain.

The objective of this research is to comprehensively examine the fundamental principles and theoretical concepts of cognitive linguistics, as well as to identify conceptual units within this scientific field, review methodological approaches in detail, and demonstrate their significance in scientific inquiry. By investigating the methodological approaches employed in cognitive linguistics and their application in empirical research, this study aims to provide a deeper understanding of the role cognitive linguistics plays in contemporary linguistic studies.

The purpose of this research is to elucidate the significance of the conceptual units that facilitate the understanding of cognitive linguistics, specifically scenario, script, frame, and gestalt orientations, through the provision of examples. Conceptual units are constructs that form the foundation of cognitive linguistics. This is because cognitive activity is a concept that regulates the processes that occur in our mind, and these processes are executed with the assistance of conceptual units. Subsequently, a mental structure-concept is formed, through which we are able to communicate.

Consequently, classification, description, cognitive analysis, and comparative analysis methods are employed in this research. Particular

tuzilishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Har qanday jarayonni tafakkurorqali idrok etishda uning qanday shaklda namoyon bo'lishi kognitiv tahlil orqali ochib beriladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada matn tahlilining kognitiv xususiyatlari va madaniyatlararo pragmatik aloqadorligi o'rganildi. Tadqiqot natijasida matnning kognitiv darajadagi talqini uni chuqurroq tushunishga, madaniy tafovutlarni aniqlash va samarali kommunikativ vazifalarni bajarishga imkon berishi aniqlangan. Shuningdek, turli madaniy muhitlarda til pragmatikasining qoidalari va ularga bo'lgan munosabatlarning o'ziga xosligi tasdiqlandi.

Kalit so'zlar: kognitologiya, kognitiv daraja, konseptual birliklar, til va idrok, mental tuzilma, tafakkur, matn pragmatikasi, kommunikativ vazifa, madaniy tafovutlar.

KIRISH

Til tizimiga xos bo'lgan belgi-xususiyatlarni batafsil yoritish uchun tilshunoslikning barcha sohalariga birdek xizmat qiladigan tayanch nuqtani topish keyingi yillarda tilshunoslar tomonidan ko'p bora ta'kidlangan edi. Kognitiv tilshunoslik esa aynan shu talablarga mos keladi. Shunday ekan, kognitiv tilshunoslik bir necha fanlarning integratsiyasidan paydo bo'lgan, deyish mumkin. Kognitologiyaning tayanch nuqtasi esa tilshunoslik bo'lib, XIX asr oxirlaridayoq tilshunoslikning psixologik va sotsiologik ruhda tus olishini ta'kidlagan tilshunos I.A. Boduen de Kurtene "tilda ruhiy va ijtimoiy faktorlar harakatda bo'lishi sababli, tilshunoslik uchun yordamchi fan sifatida dastlabki o'rinda psixologiyani va so'ng insonlarning jamiyatdagi munosabatlari haqidagi fan – sotsiologiyani tanlaymiz" [Boduen de Kurtene, 1963] deb aytadi.

Shuningdek, amerikalik psixolog X.Gardner ham kognitiv fanlar chorrahasida olti fan sohasi (falsafa, psixologiya, tilshunoslik, antropologiya, sun'iy intellekt, nevrologiya) tutashishini va yagona bir ilmiy maqsad – tabiiy va sun'iy tizimlarda bilimning jamlanishi, qayta ishlanishi va qo'llanishi muammolari yechimini izlash bilan band bo'lishini qayd qilgan edi [Gardner, 1987; 45]. Psixik jarayonlarning obyektiv murakkabligi va ko'p qirraliligi ularni bir fan doirasida o'rganishga imkon bermaydi. Shuning uchun, kognitiv fan deganda ko'proq bilish hodisasi bilan birlashtirilgan ilmiy tadqiqotning keng dasturi tushuniladi.

Kognitiv tilshunoslikning ushbu fanlar bilan bog'liqligini asoslash uchun quyidagilarni keltirishimiz mumkin. Masalan, falsafa idrokning umumiy muammolari va bilish jarayonlari metodologiyasini, bilimlarning o'sishi va taraqqiyoti muammolarini o'rganadi; nevrologiya fani bilishning biologik asoslarini va inson miyasida sodir bo'ladigan jarayonlarga qo'yiladigan fiziologik cheklavlarni o'rganadi; psixologiya idrokni o'rganishning eksperimental usullarini ishlab chiqadi;

attention is given to the internal structure of the text. When we perceive any process through our cognition, its manifestation is revealed through cognitive analysis.

In conclusion, this article investigates the relationship between the cognitive aspects of text analysis and cross-cultural pragmatics. The research demonstrates that interpreting a text at a cognitive level facilitates a more comprehensive understanding, aids in the identification of cultural disparities, and supports the execution of effective communicative tasks. Furthermore, it corroborates the distinctiveness of language pragmatics rules and attitudes across diverse cultural contexts.

Key words: cognitology, cognitive level, conceptual units, language and perception, mental structure, thinking, text pragmatics, communicative task, cultural differences.

tilshunoslik esa lingvistik bilimlar tizimlari bilan shug'ullanadi. Aynan mana shu fanlar kognitiv fanning markaziy qismi sifatida tan olingan. Shuningdek, kognitiv tilshunoslik bilan shug'ullangan rus tilshunosi E.S. Kubryakova quyidagicha fikr bildiradi: kognitiv fan doirasida, bu va shunga o'xshash muammolarning barchasi yangicha tarzda jaranglaydi. Kognitivizm ilmiy bilimlarning yangi paradigmasining paydo bo'lishini, ilm-fan tarixida bilimlarni qanday o'rganish kerakligini, to'g'ridan-to'g'ri kuzatilmaydigan narsa muammosiga qanday yondashish mumkinligi va birinchi navbatda, inson boshida dunyoning ichki tasviri muammosini qanday belgilab berishni ifodalovchi tushunchadir [Kubryakova, 1997; 245].

Kognitologiya ko'p qirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida shakllangan tilshunoslik, o'z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko'zlaydi, lisoniy va bilim stukturalari o'rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobilliklar tahlili, izohi rejalashtiriladi [Kubryakova, 2001; 90]. Bu fikrga qo'shimcha ravishda R.M. Frumkina ham "kognitiv" atamasining noaniqligi va bo'shligini ta'kidlaydi va kognitiv paradigmani strukturalizmga qarama-qarshi qo'yish uchun yangi paradigmani faqat "qulaylik sabablari" uchun bu nom bilan ataydi [Frumkina, 1996].

Aynan kognitiv tilshunoslik nomi ostida kognitiv tilshunoslikning yaratilishi Amerika tilshunoslari J.Lakoff, J.R. Langacker, R.Jakendoff, L.Talmi va boshqalarning ilmiy taqiqotlariga borib taqaladi. Ba'zi boshqa olimlar esa, kognitologiya fan sifatida lingvistik va psixolingvistik tadqiqotlarning nisbatan yangi sohasi sifatida, 1990-yillar boshidagina, ushbu yondashuvga bag'ishlangan birinchi "Kognitiv lingvistika" jurnali nashr etilganda shakllangan degan fikrni olg'a surishadi [Langacker, 1987; 540].

Bizningcha, kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi til va ongda ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini yanada chuqurroq anglash imkoniyatini beradi. Bu esa lingvistikani yangi yo'nalishlar bilan boyitib, til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun, kognitiv tilshunoslikni shunchaki yangi yondashuv emas, balki tilshunoslikning asosiy ustunlaridan biri deb qarash lozim.

Keyinchalik esa kognitiv tilshunoslik amerikalik kognitiv tilshunoslar A.E. Goldberg, J.R. Teylor, M.Tomasello, J.Baybi, Yevropada ispan olimlari K.R. Koventri, P.Guijarro-Fuentes, ingliz kognitiv tishunoslari K.Vilyam, Y.Liyeven tomonidan tadqiqotlar obyektiga aylandi hamda Osiyo mamlakatlarida ham o'z tarafdorlariga ega bo'ldi. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalish namoyandalari sifatida Sh.S. Safarov, D.U. Ashurova, A.E. Mamatov, G'M. Hoshimov va bir qancha tilshunoslar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

TADQIQOT METODLARI

Maqolada tasniflash, tavsiflash, kognitiv tahlil hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalandik. Ushbu tadqiqotimizda o'rganiluvchi masalalarga oid fikr va qarashlar ingliz, rus va o'zbek tilshunoslari tomonidan misollar keltirish orqali yoritib berilgan. Shuningdek, tilshunoslarning "*kognitivlik*" atamasi hamda kognitiv lingvistikaning paydo bo'lishiga doir ta'rif va tavsiflari berilgan.

Kognitiv tilshunoslik lingvistik tilshunoslikning ma'lum bir yo'nalishi

hisoblanib, lingvistik tadqiqotlarda kognitiv lingvistikani tahlil qilishni shartli ravishda to'rt xil yondashuv asosida olib borish mumkin: ssenariy, skript, freym va geshtalt. Ushbu konseptual birliklar kognitologiyada insonning tashqi olamni idrok etishi va uning tajribasini aks ettiruvchi tushunchalar bo'lib, ularning asosiy vazifasi tashqi olam haqidagi bilimlarni kategoriyalashtiradi. Masalan, konseptual birliklardan skript tahlilini oladigan bo'lsak, uning ssenariydan farqi shundaki, u bolalik davrlarimizdanoq, yashash jarayonimizda o'zgalar xatti-harakatini kuzatish natijasida shakllanadi.

Bundan tashqari, kognitiv tahlil metodlaridan biri bo'lgan freym haqida so'z yuritsak, bilamizki, har bir inson xotirasida ma'lum bir bilimlar zaxirasi mavjud bo'ladi, aynan shu zaxira orqali inson ma'lumotlarni qabul qiladi va idrok etadi. Aynan shu zahira freym asosida shakllanadi. Shuningdek, bu tuzilmalar insonning ijtimoiy va shaxsiy tajribasini tartibga soladi hamda ular yordamida inson voqealarni qanday paydo bo'lishi va tarkib topishini bilib oladi. Tafakkurimizdagi mental maydonda sodir bo'ladigan hodisalar kognitiv qolipga solinadi va aynan yuqorida sanab o'tilgan konseptual birliklar yordamida tilimizda namoyon bo'ladi. Shuningdek, tadqiqotimiz davomida qiyoslash metodidan ham foydalanganmiz, unda ingliz va o'zbek tillaridagi ma'lum konseptlar kognitiv tahlil qilinib, ikki tildagi o'xshash va farqli jihatlari izohlangan.


NATIJALAR VA MUNOZARA

Demak, kognitiv tilshunoslik tilning turli darajalarida bilimlarni ifodalash usullarini o'rganadi, lingvistik kategoriyalarni bilimning ma'lum qatlamlariga loyihalashtiradi. Tilning kognitiv funksiyasini tavsiflash orqali insonning bilish va kommunikativ faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va til birliklari semantikasiga singib ketgan barcha turdagi bilimlar tizimlashtiriladi. Ushbu fikrlar isbotini asoslash maqsadida, kognitiv fanning predmeti, maqsad va vazifalarini tushunish uchun uning tarixiy kelib chiqishiga murojaat qilmoqchimiz.

Kognitiv fan 50-60-yillardagi urushdan keyingi dunyoda fikrlash jarayonlariga qiziqishning ortishi natijasidir. Diqqat markazida amaliy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan psixologiya bo'ldi. Bir tomondan, urush jarohatlari va urushdan keyingi ruhiy kasalliklar tufayli shikastlangan insonlarning ruhiy salomatligini tiklash, ikkinchi tomondan, nutqni idrok etish va uzatish hamda kiruvchi ma'lumotlarni masofaviy va yuqori tezlikda qayta ishlash bo'yicha yangi ma'lumotlar asosida harbiy ehtiyojlarni ta'minlash kerak edi. Vazifalar shu qadar keng ko'lamli bo'lib chiqdiki, ularni hal qilish uchun bilim olish jarayonlarini u yoki bu tarzda o'rganuvchi boshqa fan sohalari mutaxassislari – matematiklar, elektron muhandislar va tilshunoslar jalb qilina boshlandi. Kognitiv fanning dastlabki qadamlari matematik modellashtirish asoslarini tahlil qilish, matematik tafakkur psixologiyasi bilan bog'liq degan fikrlar ham keng tarqalgan [Kubryakova, 1994]. Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi esa shaxsning dunyoga bo'lgan alohida qarashlarini va uni tilda konsepsiyalash usullarini, turkumlashtirishning umumiy tamoyillarini va axborotni qayta ishlash mexanizmlarini qanday aks ettirish nuqtayi nazaridan o'rganishdan iboratdir [Boldyrev, 2000;

110]. Kognitiv fanning eng maqbul va keng qamrovli ta’rifi R.Shepardga tegishli ta’rif hisoblanishi mumkin, unga ko’ra kognitiv fan psixik jarayonlarni boshqaradigan umumiy tamoyillar haqidagi fandir [Shepard, 1988].

Ko’pchilik olimlar tilshunoslikda kognitiv yondashuvning paydo bo’lishini J.Miller va F.Jonson-Leyrdlarning mashhur “Til va idrok” (“Language and Cognition”) kitobining nashr etilishi bilan bog’laydilar. Uning mualliflari til tizimini va leksikasini psixologik jihatdan o’rganuvchi fan – “psixoleksikologiya” fanining asoslarini yaratish vazifasini o’z oldilariga qo’yidilar. Kelajak ko’rsatganidek, psixoleksikologiya fan sifatida shakllana olmadi, lekin kognitiv tilshunoslik J.Miller va F.Jonson-Leyrd tomonidan taklif qilingan g’oyalar va yondashuvlar asosida yuzaga keldi [Skrebstova, 2011; 7]. Yuqorida keltirilgan olimlar o’zlari anglamagan holda kognitiv lingvistika ibtidosini boshlab berdilar. Shuningdek, amerikalik psixolog G.Xarman kognitologiyani turli fanlar chorrahasida birlashuvchi yo’nalish deb tadbqiq etib, uni quyidagi shakl orqali ifodalab bergan [Harman, 1998]:



Xususan, Sh.S. Safarovning fikriga ko’ra, “kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo’llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in’ikosi sifatida tafakkur bilan bog’lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir” [Safarov, 2006; 91]. Professor A.Mamatov til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritarkan, shunday deb yozadi: “Kognitiv fan kognitsiya (bilish) bilan shug’ullansa, kognitiv tilshunoslik kognitsiyaning, ya’ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo’lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o’z tuzilishiga ko’ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi” [Mamatov, 2012].

T.Siliang (崔希亮 Cui Xiliang) kognitiv tilshunoslikning tadqiq qilish tarixi ancha uzoq davom etgan-u, ammo kognitiv tilshunoslikning yuksalishi davri oxirgi qirq-ellik yilda paydo bo’lganligini ta’kidlagan. Tilshunosning fikriga ko’ra, til bo’yicha kognitiv tadqiqotlarni ikki katta guruhga ajratish mumkin: biri psixologiyaga asoslangan tadqiqotlar (*the psychological approach* – psixologik yondashuv), yana biri tilshunoslikka asoslangan tadqiqotlar (*the linguistic approach* – lingvistik yondashuv).

Psixologiyaga asoslangan tadqiqotlar tilni his etish, tushunish, xotirada saqlash, diqqat bilan bog‘liq masalalarga katta e‘tibor qaratsa, tilshunoslikka asoslangan tadqiqotlar til shakllari, til birliklarining ma‘nosi, shakl va ma‘no o‘rtasidagi jarayon, ma‘no – tushunchalar va tashqi dunyo o‘rtasidagi aloqasi kabi masalalarni tadqiqot obyektiga aylantiradi [Boymurodova, 2022].

Rus tilshunosligiga esa kognitiv lingvistika V.I. Gerasimovning (“Новое в зарубежной лингвистике”, 1988) ilmiy maqolasi bilan kirib keldi. Rus tilshunosligining yana bir atoqli vakili E.S. Kubryakova quyidagicha fikr bildiradi: “Kognitologiya ko‘p qirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida shakllangan tilshunoslik, o‘z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko‘zlaydi, lisoniy va bilim stukturalari o‘rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobilliklar tahlili, izohi rejalashtiriladi” [Kubryakova, 2001; 90].

Shuningdek, tilshunos N.Xomskiyning bixevioristik til konsepsiyasini tanqid qilishga bag‘ishlangan qator asarlari (50-yillarning 2-yarmidan boshlab) jahon tilshunosligi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Ba‘zi tadqiqotchilar ushbu bosqichni “birinchi kognitiv inqilob” deb atashni taklif qilishadi [Chomsky, 1967]. Ko‘rib turganimizdek, kognitivizm keng ko‘lamli, ko‘p qirrali va asosan qarama-qarshi fandir. Ammo aynan mana shu nomuvofiqlik, uning ko‘pgina qoidalarining ziddiyatli tabiati, uning rivojlanishi uchun eng kuchli rag‘bat bo‘lib tuyuladi.

Xususan, kognitivlikning o‘ziga ta‘rif beradigan bo‘lsak, “kognitiv” atamasi ingliz tilidagi “*cognitive – bilishga oid*” so‘zidan olingan bo‘lib, lotin tiliga va yunon tiliga borib taqaladi va *bilish, anglash, tafakkur* tushunchalari bilan bog‘liqdir [Boymurodova, 2022]. Dunyoni, voqelikni bilish, idrok etish, ong va tilda aks ettirish, til orqali muloqotga kirish, axborot uzatish va qabul qilish oddiy hodisa emas. Kognitiv tilshunoslik falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy, lingvistik hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi.

O‘z o‘rnida, kognitiv faoliyat inson tomonidan voqelikni bevosita idrok etish bilan bog‘liq hodisadir. Kognitiv – bu o‘qish yoki tajriba orttirish orqali har qanday narsa haqida olinishi mumkin bo‘lgan barcha bilim va ma‘lumotlarning yaxlit to‘plamidir [Shatil, 2013].

O‘zbek tadqiqotchisi Z.Arslonovning fikricha, “sezgi shakllanish uchun zamin tayyorlaydi, u tafakkurdagi voqelikning bir qismidir” [Arslonov, 2012]. Demak, biz biror narsa yoki hodisani sezgi organlarimiz orqali idrok qilamiz, ko‘ramiz va eshitamiz. Biz olingan yangi ma‘lumotlarni tushunamiz va tafakkurimiz orqali tahlil qilamiz. Kognitivlikning tahlil obyekti bu tildir, chunki bilimni olish uni amalda qo‘llash va uzatish vositasi ham aynan tildir. Keling, kognitiv fanda tilshunoslikning nufuzini tasdiqlovchi bir qator fikrlarni keltiraylik. G.Gardner shunday ta‘kidlaydi: “Til kognitiv fanning asosiy mavzusidir. Bu qisman tilning fikrni ifodalashning asosiy vositasi sifatida bilishni aks ettirishi bilan bog‘liq, shuning uchun tilni o‘rganish – bilishni o‘rganishning bilvosita usulidir. Bundan tashqari, til idrokka ta‘sir qilishi, uning qanday tushunchalarga ega ekanligi va uning boshiga qanday fikrlar kelishiga ta‘sir qilishi mumkin” [Gardner, 1987]. Bu bayonot E.S. Kubryakovaning fikriga mos

keladi: tilshunoslikka murojaat qilish muqarrar, chunki "... lingvistik ma'lumotlar kognitiv jarayonlar va kognitiv mexanizmlarga eng aniqlik va moslikni ta'minlaydi; ularning ko'rinishini ma'lum jarayon va insonning aqliy va kognitiv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muayyan mexanizmlar ta'sirining natijasi deb hisoblaydi". Umuman olganda, inson o'zining real faoliyatida dunyo haqidagi ma'lumotlar bilan ishlaydi va bunday ma'lumotlarning ma'lum bir bazasi asta-sekin shakllanadi. Mashinaga bilimlar banki ham kerak. Agar til bilimlar bankini yaratish uchun ishlatilsa, bilimning aslida qanday ishlashini tushunish kerak. "Buning uchun, – ta'kidlaydi olim, – til qanday ishlashini bilishingiz lozim. Tilning ishlashi pirovardida ma'lum ma'nolarning ifodasi bo'lganligi sababli, bilim kategoriyasi va uni tilda ifodalash usullarini tahlil qilish sun'iy intellekt mutaxassislari o'rganadigan asosiy narsaga aylanadi" [Kubryakova, 1994]. Kognitiv tilshunoslik, D.U. Ashurovaning fikricha, "inson tajribasining psixik jarayonlari va ularning natijalarini – bilimlarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan tilshunoslik yo'nalishidir. Kognitiv tilshunoslikning mohiyati tilning dunyo haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bilimlarning ma'lum qatlamlarini uzatuvchi kognitiv mexanizm sifatidagi g'oyasidir" [Ashurova, 2011]. Demak, aytishimiz mumkinki, kognitiv tilshunoslik voqelik, tafakkur, ong va til o'rtasidagi munosabatlarga asoslanib, bilimlarni olish, anglash, qayta ishlash va uning matnlarda aks etish jarayonlarini o'rganadi.

Ong "kognitiv daraja" sifatida ikki qismga bo'linadi: lingvistik ong va nolingvistik ong. Inson ongi nafaqat to'plangan hayotiy tajribani, dunyo va o'zi haqidagi bilimlar to'plamini o'z ichiga oladi, balki o'zaro bog'langan mantiqiy mulohazalar va tushunchalar va xulosalar tizimi, shuningdek, og'zaki bilimlar, tilni bilish, uning morfologik, fonologik, mantiqiy, pragmatik, sintaktik va boshqa tizimlarini ham o'z ichiga oladi. Agar kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan ong to'plangan bilim bo'lsa, tafakkur bu bilimlarning to'plovchisidir. Ko'rib turganimizdek, "tafakkur va ongning mavjudligi va faoliyati o'zaro bog'liqdir: ong (to'plangan bilimlar holati) fikrlash jarayonini ta'minlaydi, bu esa, o'z navbatida, bilimlarni (ongni) to'plash va tizimlashtirish manbai hisoblanadi" [Fesenko, 2004].


Shunga ko'ra, kognitiv tilshunoslik aqliy faoliyatimiz natijasini aks ettiruvchi tilshunoslik yo'nalishidir. Barcha jarayonlar avval ongimizda to'g'ri tartibga solinsagina, u lisonimiz orqali yanada teranlashadi. Xususan, psixolog B.Skinnerning 1957-yilda nashr etilgan "Verbal Behavior" ("Lisoniy harakat") nomli asarida lisoniy xatti-harakatni boshqa harakatdan farqi yo'q hodisa sifatida ta'kidlagan [Skinner, 1957]. Afsuski, uning fikri noto'g'ri ekanligi isbotlandi, chunki agar lisoniy harakatni barcha boshqa turdagi harakat bilan tenglashtirilsa, u holda lisoniy birlikni hayvonlar bajarayotgan harakat bilan bir qatorga qo'yilgan bo'ladi. Bu fikrga birinchilardan bo'lib, B.Skinner qarshi chiqdi. Keyinchalik esa N.Xomskiy taqriz e'lon qildi. Unda bixevoristlarning fikri asossiz ekanligini isbotlashga harakat qildi [Chomsky, 1967].

Uning fikricha, lisoniy faoliyat faqatgina insonga xos faoliyatdir va u tafakkur bilan bevosita bog'liqdir. Ya'ni u tilni mental hodisa sifatida izohlaydi. E.Sepir, X.Xoyjer, K.F. Xokket, Y.M. Budagov, V.I. Panfilov kabi olimlar tafakkur paydo bo'lishida, tashqi dunyoni anglashimizda, til asosiy rol ekanligini ta'kidlashgan.

Ularning fikricha, aynan lisoniy faoliyat orqali inson voqelikni anglaydi, idrok etadi va bu ongga ta'sir qilib voqelikni tushunish qobilyatini shakllantiradi. Lekin tilsiz tafakkur mavjud bo'lmaydi degan fikr to'g'ri emas. Shu o'rinda B.A. Srebrennikovning fikrini keltirmoqchimiz: "Voqelikning miyada aks etishi faqatgina nutqiy faoliyat yordamida amalga oshmaydi. Shuning uchun u tafakkurning lisoniy va nolisoniy turlariga ajraladi [Srebrennikov, 1983; 319].

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, tafakkur qay yo'sinda bo'lmasin, lisoniy yoki nolisoniy, bir xil vazifani bajaradi, ya'ni voqelikni qabul qilish, qayta ishlash va tartibga solish. Tafakkurning paydo bo'lishi ham bilish jarayoni bilan bog'liq. Xususan, S.D. Katsnelson ta'kidlaganidek, "til nafaqat muloqot quroli, balki fikr va g'oyani shakllantiruvchi hamda ifodalovchi quroldir, til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro muloqot mental faoliyatning lisoniylashuviga olib keladi [Katsnel'son, 1972; 216]. Shuning uchun ham, kognitiv tilshunoslik lisoniy faoliyat bilan shug'ullanuvchi fan sifatida ham qaraladi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog'liq holda o'rganishdan iboratdir. Aynan shu mantiqiy va lisoniy tizim o'rtasidagi aloqaning uzviyligidan kategoriyalshtirish vujudga kelgan. Amerikalik psixolog J.Brunerning aytishicha, "til ham tashqi ta'sirlarni boshqarishga o'rgatuvchi har qanday ta'lim ham aynan shu kategoriyalar haqidagi ma'lumotdan boshqa hech qanday bilimni yetkazmaydi. Agar biror idrok kategoriya tizimiga kiritilmay yakka holda qolsa, sukunatga ko'milgan orzudagi marvarid, qaqnusga aylanadi" [Bruner, 1977; 412]. Lisoniy tajribaning qaqnusga aylanib qolmasligi uchun tajriba natijalarini tizimlashtirish va bu tizimlar qanday uslubda va qanday xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zaro farq qilish mumkinligini aniqlash lozim. Demak, yuqorida aytib o'tgan kategoriyalshtirish prinsipi quyidagi harakat bosqichlarini qamrab oladi [Barsalou, 1982]:



Shuningdek, hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikda keng tarqalgan metodlardan yana biri freym tahlili hisoblanadi. Lingvokognitologiyaga ko'ra, har qanday matn ma'lum bir freym ifodasidir. Freym nazariyasini yaratgan olimlardan biri M.Skrebstova unga shunday ta'rif beradi: "....freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, har qanday freymda ko'p qirrali axborot o'zaro bog'langan bo'ladi" [Skrebstova, 2011]. Binobarin, freym u yoki bu tipik vaziyatning keng hajmli prototipi bo'lib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini

bajaradi. Binobarin, “commercial event” (savdo voqeasi) deb nom olgan freymni olaylik. Ushbu freymda aks etadigan voqea inglizcha *buy* “xarid qilmoq” freymi qo‘llanishi bilan tasvirlanadi. Dastlab “A” shaxsning puli bor, boshqa bir shaxs “V”da sotiladigan mol (tovar) bor. Narx kelishilgandan so‘ng “A” pulni “V”ga to‘laydi va kerakli molni sotib oladi. Voqeaning yakunida “A” xarid qilingan tovarning egasiga aylanadi. “V” esa – pulning egasi. Ayrim yo‘l-yo‘lakay uchraydigan holatlarni chetlab aytish mumkinki, BUY “xarid qilmoq” kategoriyasi kamida yana to‘rt kategoriya bilan bog‘lanadi. Bular BUYER “xaridor”, SELLER “sotuvchi”, GOODS “tovar, mol” va MONEY “pul”. Aynan shu kategoriyalar bog‘liqligi BUY “xarid qilmoq” freymini tashkil etadi [Fillmore, 1977; 104].

Bu o‘rinda shuni ham aytish lozimki, matn yaratilishi tadqiqida kognitiv tuzilmalardan biri bo‘lgan geshtalt ham muhim o‘rin tutadi. Hozirgi tilshunoslikda mavjud bo‘lgan semantik geshtaltlar nazariyasi tilning lug‘aviy sathini o‘rganishga tadbiiq etilgan [Karaulov, 1987; 263]. Geshtalt hodisasini matn bilan bog‘lab o‘rganuvchi tadqiqotlar soni esa juda oz. Vaholanki, har qanday matn yaratilishi “butundan – bo‘lakka” jarayonini aks ettiradi. Sh.Safarovning fikriga ko‘ra, geshtalt va matn yaratilishini uzviylikda tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [Safarov, 2006]. Shuningdek, geshtaltda bir necha tamoyillar mavjud. Ulardan quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- “yaqinlik tamoyili” (principle of proximity): bir-biriga yaqin joylashgan elementlar o‘zaro bog‘liq holda idrok etiladi;

- “o‘xshashlik tamoyili” (principle of similarity): bir-biriga monand elementlar yagona bir bo‘lak yoki qism sifatida idrok qilinadi;

- “yopiqlik tamoyili” (principle of closure): idrok harakati berk (tugallangan) shaklga yo‘naltiriladi;

- “davomiylik tamoyili” (principle of continuation): alohida elementlar o‘rtasidagi uzilish kam bo‘lsa, ular yaxlitlik sifatida idrok etiladilar.

Voqeliklardagi obyektlarni yaxlitlikda xolistik idrok etilishi xuddi shu tamoyillarga asoslangan [Safarov, 2006]. Masalan, quyidagi tamoyillarga misol keltiradigan bo‘lsak, turli ko‘rinishdagi kitoblarning suratlarini solishtiradigan bo‘lsak, ularning hammasida umumiy o‘xshashlik elemntlari bor, ya’ni barchasida varaq, siyoh muqova kabi elementlar mavjud. Bu suratlarini ko‘rganimizda kitoblarni qismlarga ajratmaymiz, balki shunchaki *kitob* sifatida ko‘ramiz. Ushbu misolimizni tamoyillarga moslaydigan bo‘lsak, kitobning barcha qismlari bir-biriga juda yaqin (yaqinlik tamoyili), kitobning varaqlari va ishlatilgan siyohlar bir xil (o‘xshashlik tamoyili) hamda kitobning barcha o‘xshash jihatlarini bir-birini davom ettiradi (davomiylik tamoyili). Xuddi shu misolni ingliz tilidagi “building” konsepti misolida ko‘radigan bo‘lsak, tasavvur qilaylik, turli ko‘rinishdagi “pictures of buildings”ni solishtirsak, ularning barchasida bir-birini takrorlaydigan o‘xshash jihatlar mavjud, jumladan, *window, door, wall, roof* kabilar barchasida mujassam. Lekin biz bularni ilk marotaba ko‘rganimizda qismlarga ajratmagan holda, ya’ni faqatgina *building* holatida ko‘ramiz. Bu misolimizda ham geshtalt tamoyiliga asosan “yaqinlik, o‘xshashlik va davomiylik tamoyillari” mavjud.

Bilish jarayonining milliy-madaniy xususiyatlarga bo'g'liqligi doimo tilshunoslarni qiziqtirib kelgan. Bu borada fikrlar ham turlichadir. Ulardan ayrimlari hatto turli xalqlarning borliqni idrok etishi, bir-biriga batamom mos kelmasligini ta'kidlaydi. Masalan, J.Bruner, "barcha xalqlar yagona voqelikni turlicha tasavvur va tasvir qilishadi", deya ta'kidlagani ham bejiz emas [Bruner, 1990]. Oldingi tajriba esa insonning bevosita ko'z o'ngida o'zi yashab turgan muhitda yuz berayotgani bois to'planadi. Shuning uchun ham, har qanday turdagi bilishga oid strukturalarda milliy kolorit mavjud bo'lishi shubhasizdir. Oddiy misol, insonning inson bo'lib shakllanishi ham madaniyat bilan bog'liq. Bu faqat uning intellektual faoliyati emas, balki yashab kelayotgan oddiy hayotiy xatti-harakatlari ham milliylik va madaniyat bilan bog'liq. Turli tillarning madaniyati bir-biridan voqelikni moddiy va ma'naviy o'zlashtirish jihatidan farq qiladi. Bunda aynan obyekt yoki faoliyat farqlanmaydi, balki ma'naviy o'zlashtirish jarayoni qay uslubda ekanligi farqlanadi. Madaniyat doimiy harakatdagi hodisadir. Inson ham hech qachon tug'iliboq madaniyatli bo'lib qolmaydi, aksincha, hayoti davomida muloqotga kirishishi, ijtimoiy faoliyat natijasida madaniyatga erishib boradi. Shuning uchun ham, madaniyat insonlarning muloqot mahsulidir. Lison o'zida voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa o'sha voqelikning ajralmas qismidir. Lekin lison va madaniyat munosabati juda murakkab jarayon, shuning uchun ham ular tadqiqiga juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarur. Bu ikki tizimning o'zaro o'xshashlik va umumiy jihatlari mavjud. Xususan, V.N. Teliya bu umumiylik xususida quyidagilarni keltiradi: til va madaniyat subyekti individ, jamoa, shaxs yoki jamiyat bo'ladi, me'yoriylik va tarixiylik til va madaniyat uchun umumiy xususiyatdir. Umumiylik xususiyatlari ko'pligi sababli ham til madaniyatning ajralmas qismi deb et'irof etiladi [Teliya, 1996]. Lekin shunga qaramay, ularni farqlovchi jihatlar ham mavjud. Bulardan tizimiylik ko'rsatkichini oladigan bo'lsak, madaniyat tildan farqli o'laroq tartiblashish tizimlashish xususiyatiga ega emas, til va madaniyat bajaradigan vazifalariga ko'ra keskin farq qiladi. Til barcha uchun bir xil hodisa, ya'ni "jamoaviy adresatli" bo'lsa, madaniyat esa elitalik (saralik) xususiyatiga ega. Tilning madaniyat uchun eng katta xizmatlaridan bular: axborot manbalarini saqlash, ularni avloddan avlodga yetkazish va madaniy tushunchalarni shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi til tizimining bilish jarayonidagi ishtirokini aniqlashdir. Axborotni shakllantirishda lisoniy faoliyatning o'rnini aniqlash kognitiv tahlilning bir ko'rinishidir. Lisoniy faoliyat o'zi nima? U kognitiv faoliyatning ajralmas qismidir. Kognitologiyaning boshqa sohalaridan farqli ravishda kognitiv tilshunoslik aynan til tizimi va uni insonlar tomonidan o'zlashtirish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Kognitivist esa lisoniy va tafakkur faoliyatlari o'rtasidagi munosabatni va ularning mazmunini anglashga va tahlil qilishga harakat qiladi. Kognitiv tadqiq ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: a) nutqiy faoliyat ijrosi va uning mahsulining paydo bo'lishi; b) ushbu faoliyat mahsulotlarining idrok etilishi. Kognitiv tilshunoslikning eng yorqin sohalaridan biri kognitiv fonologiyadir. Bu yo'nalishning vazifasi kognitiv faoliyat bilan fonetik hodisalarning bir-biriga qay darajada mos kelishini o'rganishdan iboratdir. Kognitiv qoliplar fonetik hodisalarni nazorat qiladi, mazmun va shakl o'rtasidagi munosabatni aniqlaydi [Eliasson, 1991]. V.Cheyfning fikricha,

nutqning qanday ohangda talaffuz etilishi aynan sodir bo'layotgan o'sha voqeaning inson ongidan olinishi bilan bog'liqdir [Chafe, 1987]. Masalan, 1. Ahmad Toshkentga ketdi (urg'u Toshkentga so'ziga tushmoqda va zamonni ifodalovchi so'z yo'q. 2. Ahmad Toshkentga kecha ketdi (payt holi mavjud va u urg'u oladi. Birinchi gapda payt holi yo'qligi sabab axborot yangi va u inson xotirasining ustki qismida saqlanadi. Ikkinchi gapda esa voqea qachon sodir bo'lgani ma'lum va u inson xotirasining anchagina chuqurroq sathida saqlanadi. Shuningdek, tilshunosning ta'kidlashicha, til axborotni so'zlovchi ongidan tinglovchi ongiga uzatish imkonini yaratadi va bu axborotlarning ba'zilar tinglovchi uchun yangi, u uni birinchi marotaba eshitayotgan bo'ladi, ba'zilar esa inson ongida chuqurroq joylashadi va saqlanadi. Demak, yangi axborotning lisoniy voqealanishi osonroq kechadi, chunki yangi axborot tinglovchi diqqatini ko'proq jalb qiladi. Kognitiv tahlil bilan lisoniy faoliyatning yana bir jihati lisoniy birlikning real voqelik bilan munosabatining qay yo'sinda bolishini aniqlash bilan bog'liqdir.

Shuningdek, kognitiv jarayon ham lisoniy muloqot bilan o'zaro bog'liqdir, chunki insonlar lison orqali o'zaro fikr almashadi va bilimini oshiradi. Lekin tinglovchida hosil bo'lgan bilimning sifati ham juda muhim. Aynan shu masala bo'yicha L. Vitgenshteyn faoliyat olib borgan. Uning fikricha, "uzatilayotgan axborot butunlay yangi bo'lishi shart emas, sababi, birinchidan, butunlay yangi axborot tinglovchini qiziqitmaydi va muloqotga undamaydi. Ikkinchidan, yangi ma'lumot tinglovchining oldingi bilimi bilan tezda birikmaydi, natijada uni qabul qilish qiyinlashadi. Eng qulayi, eski va yangi mulomotning o'rtasi bo'lish kerak" [Wittgenstein, 1958].

B.L. Uorfning fikriga ko'ra, biz dunyoni tilimiz qanday yo'naltirsa, shunday tushunamiz. Ongimizda paydo bo'ladigan barcha fikrlar tashqi dunyo taassurotlari asosida shakllanadi va bu shakllanishni til tizimi tartibga soladi. Shundan anglashimiz mumkinki, dunyo bir xil fizik hodisalardan iborat bo'lsa ham, uning tasviri turli tillarda turlicha bo'ladi. Faqat til tizimlari o'xshash bo'lgandagina, olamning bir xil tasviriga erishish mumkin [Uorf, 1960]. Demak, u lisoniy determinizm (tafakkur faoliyati lison bilan bog'liq) farazini ilgari suradi, ya'ni til insonlarning tafakkurini belgilab beradi. Idrok etish, voqelikni bilish ham til tizimi bilan bog'liq. Albatta, bu fikrdan keyin savol tug'iladi: qay biri birlamchi? Asli ikkisi ham bir-birini taqozo etuvchi hodisadir, shuning uchun ham ko'pgina tilshunos va psixologlar B.L. Uorfning tadqiqotlari ustida qayta ishlashmoqda va olimning til va tafakkur o'rtasidagi aloqa ixtiyoriy degan fikrini qattiq tanqidga olishmoqda. A.M. Bushiy xuddi shu fikrga quyidagicha izoh keltiradi: "Til insonlar tomonidan tanlangan va istagan paytida o'zgartirishi va almashtirishi mumkin bo'lgan hodisa emas. Til atrofdagi moddiy olamni aks ettiradi" [Bushiy, 2005].

Eston psixologi P.Tulveste qator tajriba o'tkazgan va "turli tillarga turli xildagi bilish jarayoni mos kelmaydi" degan xulosaga kelgan. Uning fikricha, lisoniy nisbiylik emas, balki "faoliyatlar nisbiyligi" to'g'riroq bo'ladi, ya'ni til birliklari emas, balki voqeliklar solishtirilsa ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Chunki, turli millatlarda tillararo farqdan ko'ra tafakkur farqlari ko'proq. Buning sababi, tafakkur insonga Alloh tomonidan in'om etilgan eng buyuk va murakkab qobiliyatdir. U doimo

harakatda, atrofdagilar ta'sirida yanada boyib boradigan hodisadir. Til va tafakkur o'zaro teng huquqli hamkorlikdagi hodisadir. Aslida tilga ham, tafakkurga ham ta'sir o'tkaza oladigan hodisa esa madaniyatdir. Chunki inson oldingi ko'nikmalariga asoslangan holda (balki tug'ma bo'lishi mumkin) madaniyatga ega bo'ladi va voqea hodisalarga ham o'sha milliy madaniy holatidan kelib chiqqan holda javob beradi. Shunga qaramay, inson faoliyati davomida yangi madaniy muhitga moslashishi mumkin, masalan, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi rus, koreys, ukrain yoki boshqa millat vakillari ona tili sifatida o'zlarining tilini bilishadi, shunday ekan, ular o'z madaniyatlarini saqlagan holda hamda o'z madaniy me'yorlariga amal qilgan holda yashashadi. Demak, voqea-hodisani idrok qilishda o'z madaniy me'yorlaridan kelib chiqqan holda yondashishadi, bundan bilsak bo'ladiki, ularning kategoriyalashtirilishi ham biznikidan farq qiladi. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, kognitiv jarayonlar ham barcha millatlar uchun umumiy tushuncha emas. Xususan, mashhur fransuz psixologlari J.Piaje va P.Dasen kognitiv strukturalarning tug'ma va universalligi haqidagi fikrlarga qarshi chiqishdi. Xususan, J.Piajening fikricha, insonda kognitiv struktura tug'ma bo'lishi mumkin emas, faqatgina intellektning faoliyati tug'ma boladi va intellekt yordamida barcha harakat-hodisalar tartibga solinadi. Shu bilan birga, oldindan tashkillashtirilgan vositalar strukturaga solinadi va keyingina u kognitiv faoliyatga aylanadi, chunki struktura bo'lishi uchun ham oldindan tajribaga ega bo'lgan madaniy holat kerak. Madaniyat esa yashash muhitidagi muloqot yordamida vujudga keladi [Piazhe, 1983]. Olmon tilshunosi L.Lipka kognitiv kategoriyalar g'arb va sharq madaniyatlarida turlicha idrok qilinadi deya ta'kidlagan [Lipka, 1987].

XULOSA

Kognitiv tadqiqotlarning tilshunoslik sohasidagi o'rni va dolzarbligini ko'rib chiqish quyidagi ilmiy xulosalarga olib keladi:

Kognitiv fan – bu umumiy o'rganish mavzusi: bilish bilan birlashtirilgan fanlar federatsiyasi. Tilni bilish yuqori darajadagi kognitiv jarayon sifatida tushuniladi, bu kognitiv tilshunoslikning ushbu federatsiyasida alohida o'rinni oldindan belgilab beradi.

Kognitiv lingvistika bilimlarni inson boshida aks ettirish muammolari bilan shug'ullanadi hamda lisoniy shaxs tomonidan nutqni hosil qilish, idrok etish va tushunish jarayonlarida ushbu bilim tuzilmalari ishtirok etadi.

Til shaxsi bilishning tashuvchisi bo'lib, u ko'p darajali hodisadir va u alohida til foydalanuvchisi bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning tarkibida o'zgarmas komponent mavjudligi bilan muloqotga kirishuvchilar o'rtasida o'zaro tushunish imkoniyatini ta'minlaydi. Dunyoning lingvistik rasmi tilda obyektivlashtirilgan lingvistik shaxsning kognitiv faoliyati natijasidir. Dunyoning lingvistik rasmini shunday tushunish orqali kognitiv tizimlar universal hodisa emas, balki noyob, madaniy jihatdan o'ziga xos hodisa ekanligi namoyon bo'ladi. Biz ingliz va o'zbek tilshunoslik va madaniy hamjamiyatlarida dunyoning lingvistik rasmining faol qismlaridan biri bo'lgan ingliz va o'zbek tillaridagi bosma matnlarning o'ziga xos kognitiv tuzilmalari mavjud deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arslonov, Z. (2012). Kognitiv tilshunoslik haqida qisqacha. *Arslonov.blogspot.com*. https://arslonov.blogspot.com/2012/01/blog-post_12.html.
2. Ashurova, D.U. (2011). Novyye podkhody k lingvistike teksta. *Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim*, 3, 26–33.
3. Barsalou, L.W. (1982). Context-independent and context-dependent information in concepts. *Memory & cognition*, 10(1), 82–93. <https://doi.org/10.3758/bf03197629>.
4. Boduen de Kurtene, I.A. (1963). *Izbrannyye trudy po obshchemu yazykoznaniyu* (T. 2). Moskva: Izdatel'stvo AN SSSR.
5. Boldyrev, N.N. (2000). *Kognitivnaya semantika*. Tambov: Izdatel'stvo Tambovskogo universiteta.
6. Boymurodova, L.I. (2022). Kognitiv tilshunosik haqidagi nazariy bilimlar. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(21), 10–19. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-21-10-19>.
7. Bruner, Dzh. (1977). *Psixhologiya poznaniya. Za otnosheniye k informatsii* (Per. s angl.). Moskva: Progress.
8. Bruner, J. (1990). *Acts of meaning*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
9. Bushuy, A.M. (2005). Opredeleniye roli chastits v predlozhenii. *Prepodavaniye yazyka i literatury*, 6, 34–40.
10. Eliasson, S. (1991). An outline of a cognitively-based model of phonology. In V.Ivir & D.Kalogjera (Eds.), *Languages in Contact and Contrast: Essays in Contact Linguistics* (pp. 155–178). Berlin, New York: De Gruyter Mouton. <https://doi.org/10.1515/9783110869118.155>.
11. Fesenko, T.A. (2004). Kontseptual'nyy perevod v otkaze «Deystvitel'nost'-myshleniye-soznaniye-yazyk». *Voprosy kognitivnoy lingvistiki*, 1, 112–122.
12. Fillmore, C.J. (1977). The case for case reopened. In P.Cole & J.M. Sadock (Eds.), *Grammatical Relations* (pp. 59–81). Leiden, The Netherlands: Brill. https://doi.org/10.1163/9789004368866_005.
13. Frumkina, R.M. (1996). «Teorii srednego urovnya» v sovremennoy lingvistike. *Voprosy yazykaoznaniya*, 2, 55–67.
14. Gardner, H. (1987). *The mind's new science: A history of the cognitive revolution*. USA: Basic Books.
15. Harman, G. (1988). Cognitive science? In W.E. Hirst (Ed.), *The Making of Cognitive Science: Essays in Honor of George A. Miller* (pp. 258–267). Cambridge, UK: Cambridge University Press.
16. Karaulov, Yu.N. (1987). *Russkiy yazyk i yazykovaya lichnost'*. Moskva: Nauka.
17. Katsnel'son, S.D. (1972). *Tipologiya yazyka i rechevoye myshleniye*. Leningrad: Nauka.
18. Kubryakova, Ye.S. (1994). Nachal'nyye etapy stanovleniya kognitivizma: lingvistika – psixhologiya – kognitivnaya nauka. *Voprosy yazykoznaniya*, 4, 34–37.
19. Kubryakova, Ye.S. (1997). *Kratkiy slovar' kognitivnykh terminov*. Moskva: Filologicheskiy fakul'tet MGU im. M.V. Lomonosova.
20. Kubryakova, Ye.S. (2001). O kognitivnoy lingvistike i semantike termina «Kognitivnyy». *Vestnik Voronezhskogo gosudarstvennogo universiteta*, 1, 4–10.
21. Langacker, R.W. (1987). *Foundations of cognitive grammar* (Vol. 1). USA: Stanford University Press.
22. Lipka, L. (1987). Prototype semantics or feature semantics: An alternative?. In W.Hüllen, W.Lörscher & R.Schulze (Eds.), *Perspectives on Language in Performance* (pp. 282–298). Tübingen: Gunter Narr.
23. Mamatov, A.E. (2012). Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?. “O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” nomli prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari (B. 212–220). Andijon: Andijon davlat universiteti.

24. Piazhe, Zh. (1983). Skhemy deystviy i utverzhdeniye yazyka. V knige Yu.S. Stepanov (Red.), *Semiotika* (S. 133–136). Moskva: Raduga.
25. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. Samarqand: “Sangzor” nashriyoti.
26. Serebrennikov, B.A. (1983). *O materialisticheskoy podkhode k yavleniyam yazyka*. Moskva: Nauka.
27. Skrebtsova, T.G. (2011). *Kognitivnaya lingvistika*. Sankt-Peterburg: Filologicheskii fakul'tet Sankt-Peterburgskogo gosudarstvennogo universiteta.
28. Teliya, V.N. (1996). *Russkaya frazeologiya: Semanticheskii, pragmaticheskii i lingvokul'turologicheskii aspekty*. Moskva: Yazyki russkoy kul'tury.
29. Uorf, B.L. (1960). Nauka i yazykoznanie. V knige V.A. Zvegintsev (Red.), *Novoye v lingvistike* (Vyp. 1, ss. 169–182). Moskva: Izdatel'stvo inostrannoy literatury.
30. Wittgenstein, L. (1958). *Philosophical investigations* (3rd. ed.). New Jersey: Prentice-Hall.
31. Shatil, E. (2013). Does combined cognitive training and physical activity training enhance cognitive abilities more than either alone? A four-condition randomized controlled trial among healthy older adults. *Frontiers in Aging neuroscience*, 5, 8. <https://doi.org/10.3389/fnagi.2013.00008>.
32. Shepard, R.N. (1988). George Miller's data and the development of methods for representing cognitive structures. In W.Hirst (Ed.), *The Making of Cognitive Science: Essays in Honor of George A. Miller* (pp. 45–70). Cambridge: Cambridge University Press.
33. Skinner, B.F. (1957). *Verbal behavior*. New Jersey: Prentice-Hall.
34. Chafe, W. (1987). Cognitive constraints on information flow. In R.S. Tomlin (Ed.), *Typological Studies in Language. XI. Coherence and Grounding in Discourse* (pp. 21–51). Philadelphia, PA: John Benjamins.
35. Chomsky, N. (1967). A review of B.F. Skinner's Verbal Behavior. In A.J. Leon & S.M. Murray (Eds.), *Readings in the Psychology of Language* (pp. 142–143). New Jersey: Prentice-Hall.

REFERENCES

1. Arslonov, Z. (2012). Briefly about cognitive linguistics. *Arslonov.blogspot.com*. https://arslonov.blogspot.com/2012/01/blog-post_12.html.
2. Ashurova, D.U. (2011). New approaches to text linguistics. *Foreign Philology: Language, Literature, Education*, 3, 26–33.
3. Barsalou, L.W. (1982). Context-independent and context-dependent information in concepts. *Memory & cognition*, 10(1), 82–93. <https://doi.org/10.3758/bf03197629>.
4. Baudouin de Courtenay, J.A. (1963). *Selected works on general linguistics* (Vol. 2). Moscow: Publishing House of the USSR Academy of Sciences.
5. Boldyrev, N.N. (2000). *Cognitive semantics*. Tambov: Tambov University Press.
6. Boymuradova, L.I. (2022). Theoretical knowledge about cognitive linguistics. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(21), 10–19. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-21-10-19>.
7. Bruner, J. (1977). *Psychology of knowledge. Beyond immediate information* (Transl. fr. Eng.). Moscow: Progress.
8. Bruner, J. (1990). *Acts of meaning*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
9. Bushuy, A.M. (2005). Determining the Role of Particles in a Sentence. *Teaching Language and Literature*, 6, 34–40.
10. Chafe, W. (1987). Cognitive constraints on information flow. In R.S. Tomlin (Ed.), *Typological Studies in Language. XI. Coherence and Grounding in Discourse* (pp. 21–51). Philadelphia, PA: John Benjamins.
11. Chomsky, N. (1967). A review of B.F. Skinner's Verbal Behavior. In A.J. Leon & S.M. Murray (Eds.), *Readings in the Psychology of Language* (pp. 142–143). New Jersey: Prentice-Hall.
12. Eliasson, S. (1991). An outline of a cognitively-based model of phonology. In V.Ivir & D.Kalogjera (Eds.), *Languages in Contact and Contrast: Essays in Contact*

- Linguistics* (pp. 155–178). Berlin, New York: De Gruyter Mouton. <https://doi.org/10.1515/9783110869118.155>.
13. Fesenko, T.A. (2004). Conceptual translation in the structure of the relationship ‘Reality – thinking – consciousness – language’. *Issues of cognitive linguistics*, 1, 112–122.
 14. Fillmore, C.J. (1977). The case for case reopened. In P.Cole & J.M. Sadock (Eds.), *Grammatical Relations* (pp. 59–81). Leiden, The Netherlands: Brill. https://doi.org/10.1163/9789004368866_005.
 15. Frumkina, R.M. (1996). ‘Theories of the middle level’ in modern linguistics. *Questions of Linguistics*, 2, 55–67.
 16. Gardner, H. (1987). *The mind’s new science: A history of the cognitive revolution*. USA: Basic Books.
 17. Harman, G. (1988). Cognitive science? In W.E. Hirst (Ed.), *The Making of Cognitive Science: Essays in Honor of George A. Miller* (pp. 258–267). Cambridge, UK: Cambridge University Press.
 18. Karaulov, Y.N. (1987). *Russian language and linguistic personality*. Moscow: Science.
 19. Katznelson, S.D. (1972). *Typology of language and verbal thinking*. Leningrad: Science.
 20. Kubryakova, Y.S. (1994). Initial stages of the formulation of cognitivism: linguistics – psychology – cognitive science. *Problems of Linguistics*, 4, 34–37.
 21. Kubryakova, Y.S. (1997). *Brief dictionary of cognitive terms*. Moscow: Philological Faculty of Moscow State University named after M.V. Lomonosov.
 22. Kubryakova, Y.S. (2001). On cognitive linguistics and semantics of the term ‘Cognitive’. *Bulletin of Voronezh State University*, 1, 4–10.
 23. Langacker, R.W. (1987). *Foundations of cognitive grammar* (Vol. 1). USA: Stanford University Press.
 24. Lipka, L. (1987). Prototype semantics or feature semantics: An alternative?. In W.Hüllen, W.Lörscher & R.Schulze (Eds.), *Perspectives on Language in Performance* (pp. 282–298). Tübingen: Gunter Narr.
 25. Mamatov, A.E. (2012). What is the essence of the cognitive approach to language?. Proceedings of the scientific and practical conference dedicated to the 70th anniversary of the birth of Prof. A.Nurmonov entitled ‘*Current Problems of Uzbek Linguistics*’ (pp. 212–220). Andijan: Andijan State University.
 26. Piage, J. (1983). Action patterns and language assertions. In Y.S. Stepanov (Ed.), *Semiotics* (pp. 133–136). Moscow: Rainbow.
 27. Safarov, Sh. (2006). *Cognitive linguistics*. Samarkand: Publishing House of ‘Sangzor’.
 28. Serebrennikov, B.A. (1983). *On the materialistic approach to the phenomena of language*. Moscow: Science.
 29. Shatil, E. (2013). Does combined cognitive training and physical activity training enhance cognitive abilities more than either alone? A four-condition randomized controlled trial among healthy older adults. *Frontiers in Aging neuroscience*, 5, 8. <https://doi.org/10.3389/fnagi.2013.00008>.
 30. Shepard, R.N. (1988). George Miller’s data and the development of methods for representing cognitive structures. In W.Hirst (Ed.), *The Making of Cognitive Science: Essays in Honor of George A. Miller* (pp. 45–70). Cambridge: Cambridge University Press.
 31. Skinner, B.F. (1957). *Verbal behavior*. New Jersey: Prentice-Hall.
 32. Skrebtsova, T.G. (2011). *Cognitive linguistics*. Saint Petersburg: Philological faculty of Saint Petersburg State University.
 33. Telia, V.N. (1996). *Russian phraseology: Semantic, pragmatic and linguocultural aspects*. Moscow: Languages of Russian Culture.
 34. Whorf, B.L. (1960). Science and linguistics. In V.A. Zvegintsev (Ed.), *New in Linguistics* (Vol. 1, pp. 169–182). Moscow: Foreign Literature Publishing House.
 35. Wittgenstein, L. (1958). *Philosophical investigations* (3rd. ed.). New Jersey: Prentice-Hall.